

O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FOTO LAVHALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Muzaffar Hakimov SamDU Tarixshunoslik va
manbashunoslik kafedrasningi II kurs magistranti***

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixini o'rganish samaradorligini oshirishda foto lavhalardan foydalanishning ahamiyati hamda o'sha davr ruhini his etishda foto materiallardan foydalanish muhim ahamiyati va hozirgi kundagi natijalari xususida ma'lumotlar yoritiladi.

O'zbekiston tarixining yoritilishiga mustaqillik yillarida katta e'tibor qaratildi. Vatanimiz tarixida unut bo'layozgan tarixiy shaxslar, udumlar va tarixiy voqealar mustaqillik tufayli qayta tiklanmoqda. Bunda muxtaram Prezidentimiz Islom Karimovning 1998 yil bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan suhbatida tarixchilarga murojat etib, jumladan, "Sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g'ururini uyg'otsin¹" deb aytgan so'zlari bizga ilhom bag'ishlaydi. Bergan ko'rsatmalari esa dasturil amal vazifasini o'taydi. Qadimdan fan va madaniyat o'choqlaridan biribiri bo'lib kelgan Samarqand mana necha vaqtlardan buyon jahonning ardoqli shaharlaridan biridir. 2007 yil Samarqandning 2750 yillik muborak to'yi munosabati bilan uning tarixiga qiziqish va e'tibor yanada oshib bormoqda.

Vatanimiz tarixi xususan, Samarqandning XIX asr oxiri –XX asr boshlariga oid manbalar va foto-materiallarni o'rganish, o'sha davr hayoti va turli sohalardagi holatlarini o'rganish imkonini beradi. XIX asr oxirlarida Samarqandda hunarmandchilik ancha tarqqiy etgan va O'rta Osiyoda ilg'or o'rinlarda turar edi. Samarqand viloyati qishloqlari aholosining asosiy daromadi va mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bolgan bo'lsa, Samarqand shahri aholisining asosiy mashg'uloti ishlab chiqarishning hunarmandchilik sohalari bo'lgan². Samarqand viloyatida hunarmandchilikning duradgorlik, to'quvchilik, ipakchilik, bo'yoqchilik, zargarlik, temirchilik, kulolchilik, qog'oz tayyorlash kabi turlari rivojlangan edi³. XIX asrning 70-yillari boshida Samarqandda 1610 ta ustaxona, shu jumladan, 827 ta to'quvchilik, 15 ta ipak yigiruv, 42 ta bo'yoqchilik, 163 ta etikdo'zlik, 63 ta egarchilik, 37 ta kulolchilik, 26 ta tikuvchilik, 42 ta yog'och ustasi, 77 ta chilangarlik, duradgorlik va temirchilik, 12 ta cho'yan quyish, 4 ta g'isht pishirish, 34 ta chirog'-moy va sovungarlik, 30 ta ko'nchilik va hokazo ustaxonalari bo'lgan⁴.

¹ Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999. 153-b.

² Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX –начале XX веков. Самарканд, 1970. Стр. 20.

³ Normurodova G.B. XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Samarqand viloyati aholisining itimoiy stratifikatsiyasi. T.: Yangi nashr, 2013. 122-b.

⁴ Alimov D.A., Buryakov Yu.F., Raxmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (qadimgi davrdan bugungi kungacha), Toshkent, Art flex, 2009. 45-b.

1869 yil oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich, Samarqand va Kattaqo'rg'on shahrida quyodagicha bo'lgan¹:

1-jadval

№	Ustaxona yo'nalishi	Soni		
		Samarqandda	Kattaqo'rg'onda	Jami
1	To'quvchilik	681	200	881



2	Bo'yoqchilik	15	16	31
3	Ko'ncilik	30	6	36
4	Ipak yigirish	15	-	15
5	Ipakdan mato tayyorlash	34	7	41
6	Qog'oz tayyorlash va ishlov berish	42	-	42
7	Egar yasash	200	4	204
8	Metalga ishlov berish	36	9	45

1888 yil Samarqandda 1130 ta o'rtacha hunarmandlik ustaxonasi, 1969 ta mayda hunarmandlik ishxonasi faoliyat yuritgan².

Hunarmandchilik sohalarini alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Samarqandda azal-azaldan qog'oz tayyorlash takomillashgan. Samarqand qog'ozi sifatli va uzoq vaqt o'z xolatini yo'qotmasligi bilan ajralib turgan. XIX asr oxirlarida ham, qog'oz tayyorlash ancha taraqqiy etgan. 1869 yilda bunday ustaxonalar soni 16 ta bo'lgan³.

Samarqandda qog'oz tayyorlash bilan bir qatorda uni kitob shakliga keltirish hunari ya'ni –*sahhoflik* ham keng tarqalgan edi.

Yu.O.Yakubovskiyning yozishicha, XIX asrning ikkinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan muqovalash ustaxonasining nomi “Muqova” bo'lib, qolganlari katta-

¹ Саидкулов Т.С. самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Самарканд, 1970. Стр.

² Alimov D.A., Buryakov Yu.F., Raxmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (qadimgi davrdan bugungi kungacha), Toshkent, ART FLEX, 2009. 45-b.

³O'zR MDA, 5-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, 124-varoqlar.

kichik ustaxonalar bo'lgan¹. Muqovalash ustaxonalari ba'zi hollarda kitob do'koni va qiroatxona vazifasini ham o'tagan. Xom ashyo sifatida, asosan qog'oz, qalin qog'oz, rangli qalin qog'oz va charmni bozorlardan olishgan. Yelim mahalliy xalq tomonidan tayyorlangan. Bir kitob muqovalashga o'rtacha 15-30 tiyin² to'lashgan. Charmdan qilingan muqovalar esa qimmat bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra 4 so'm turgan³.

Hunarmandchilikning muhim tarmoqlaridan

Misgarlik ustaxonasi yana biri metalga ishlov berishdir. Bu soha ham o'z navbatida, temirchilik, cho'yan eritish, bronza va misga ishlov berish hamda taqinchoqlar tayyorlash kabi 19 ta turi⁴ bo'lgan bo'lsa, XIX asr oxirlarida

Samarqandda xususan temirchilikning o'zi uch guruhga bo'lingan. 1) mayda buyumlar uchun arava tayyorlovchi bolg'a, o'roq pichoq, boshqa temirchilar⁵.



(zanjir, taqa, nahal, ot so'liq, mixlar, qisgich, g'ildiragi uchun ashyolar) temirchilar; 2) Katta bolg'alar, ketmon va yasovchi temirchilar; 3) qaychi, ustara, arra va buyumlar tayyorlovchi

Metalga ishlov

berishning yana bir sohasi cho'yan **Metall eritish ustaxonasi. XIX asr eritish bo'lib, bu soha O'zbekistonning oxiri. Samarqand.**

barcha hududlarida xususan Samarqandda ham yaxshi rivojlangan. Cho'yan quyush sohasida tayyorlanadigan mahsulotlarning 80-85 foizini omoch tishlari tashkil etgan⁶. Cho'yandan asosan omoch tishlari, manqaldonlar⁷, chiroq, qozon va qo'ng'iroqlar yasalgan.

Samarqandda qo'l mehnatidan keladigan daromadning katta qismi ayollar va o'smirlar zimmasiga to'g'ri kelgan. Ular paxta tozalash, ip yigirish, tikish-bichish va boshqa ishlar bilan shug'ullanganlar. Zarafshon okrugidagi ayollarning ip yigirishi ham bir-biridan farq qilgan. Tojik va eroni ayollar ip yigiruv charxidan foydalangan bolishsa, o'zbek va qirg'iz ayollari urchuqdan foydalanishgan. Bitta ayol bir yilda manashu mehnat quroli bilan jun yoki tivitdan 2 dan – 4 pudgacha ip yigira olishgan⁸.

¹ Quraxmedov A. XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida Samarqandning iqtisodiy va madaniy hayoti. T.: Fan, 2009. 18-b.

² Tiyn –mayda pul birligi.

³ O'sha joyda, 19-b.

⁴ Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX –XX вв. Т.: «Фан», 1986. Стр. 26.

⁵ O'sha joyda, 27-b.

⁶ O'sha joyda, 28-b.

⁷ Manqaldon –qadimda uyni isitish vositasi bolgan sandal ichiga cho'g' solib qo'yiladigan idish.

⁸ O'zR MDA, 5-jamg'arma, 1-ro'yxat, 12-ish, 106-107-varoqlar.



Gilam to'qish jarayoni. XIX asr oxiri. Samarqand.

Yuqorida aytib o'tilgan ustaxonalardan tashqari Samarqandda yil davomida ishlaydigan hunarmandchilik ustaxonalari ham bo'lgan. Xususan, 12 ta cho'yan quyuvchi, 4 ta g'isht chiqaruvchi, 34 ta shag'am va sovun tayyorlovchi, 45 ta qandolatchilik, 18 ta temirchilik, qurilish va to'quvchilik dastgohi tayyorlaydigan ustaxonalar bo'lgan. Shunday qilib, Samarqandda jami 113 ta o'rta va 1495 ta mayda hunarmandchilik ustaxonalari va mayda kasanachilik korxonalari bor edi¹.

Samarqandda hunarmandchilikning rivojlanishi xalqning turmush darajasiga ham ta'sir etadi. Masalan, 1856-1857 yillarda Buxoro shahri qozixonasida tuzilgan "Sotish uchun vasiqa" da ko'rsatilishicha, usta Karim o'g'li usta Raxim tomonidan "bai batamom" (tugallangan ish) Mirza Nizomuddin o'g'li Mirza Fozilga adras ustaxonasini 100 Buxoro kumush tangasiga sotdi. Xuddi mana shu hujjatga ko'ra davogar ushbu ustaxonani har biri uchun 1 tanga-yu 40 tiyin puldan ijaraga beradi². Bundan ko'rinib turibdiki iqtisodiy munisabatlarning hunarmandchilik munosabatlari bilan chambarchas bog'langanligi jamiyatning boshqa jabxalariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shunday qilib, hunarmand bozor munosabatlariga qizg'in kirishib ketdi va o'z navbatida tavar ishlab chiqaruvchiga aylandi. Bu jarayon juda sekinlik bilan kechdi. Bu haqdagi lavhalarni foto-materiallardan ko'rish mumkin. O'zbekiston tarixining XIX asr oxiri XX asr boshlarida hunarmandchilikning holati va turlarini bilishda hamda o'sha davr ruhini his etishda foto materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylardagi O'zbekiston tarixi fanlarini qiziqarli va ma'lumotlarga boy tarzda o'tishni ta'minlovchi vositalardan biridir.

Shunday ekan, mustaqil O'zbekistonimizning har bir o'g'il-qizi Vatanimiz tarixini nafaqat bilishi, balki har bir davri ruhini chuqur his etmog'i zarur. Shundagina yurtimizdagi barcha sohalar gurkirab rivojlanadi, qalbi teran barkamol avlod shakllanadi.

¹ O'sha joyda, 124-125-vv.

² O'zR MDA, 126-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2004-ish, 17-varoq.